



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 29-aprel

130-10-0-F/25

Toshkent viloyati hokimiligi

Xorazm viloyatining Xiva tumanida o‘tkaziladigan “Arda Xiva” turizm yarmarkasida Toshkent viloyatining ko‘rgazmali stendini tayyorlash va turizm sohasi vakillari hamda jamoalarining ishtirokini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 12, 14 va 23-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshirig‘iga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 23-apreldagi 01-01/23-3962-sonli xatiga muvofiq, viloyat hokimi o‘rinbosari D.Babajanovning bildirgisini inobatga olib, va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan,

1. Toshkent viloyati hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Xorazm viloyatining Xiva tumanida o‘tkaziladigan “Arda Xiva” turizm yarmarkasida Toshkent viloyatining ko‘rgazmali stendini tayyorlash va turizm sohasi vakillari hamda jamoalarining ishtirokini ta‘minlash xarajatlari uchun viloyat hokimligiga 95 960,0 ming. (to‘qson besh million to‘qqiz yuz oltmish ming) so‘m mablag‘ ajratilsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Sh.Xashimov) mablag‘ ajratish bo‘yicha “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”da tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta‘minlasin.

3. Viloyat g‘aznachilik boshqarmasi (M.Zaripov) ajratilgan mablag‘ bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlasin.

4. Viloyat hokimligi ishlar boshqarmasi (A.Mixmanov) ajratilgan mablag‘ni belgilangan tartibda “Mahalla” xayriya jamoat fondi Toshkent viloyati bo‘limining hisob raqamiga o‘tkazilishini ta’minlasin.

5. O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondi Toshkent viloyati bo‘limi (D.Shoismanov) ajratilgan mablag‘ni belgilangan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlasin.

6. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (O.Odilov) ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

7. Mazkur farmoyish ijrosini ta’minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari O.Tursunov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev